

TIL TIZIMIDA FRAZELOGIZMLARNING IFODALANISHI

Talaba: Voxidova M.J.

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti talabasi

Xakimbayeva O.K.

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti Umumiy tilshunoslik kafedrasida katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada frazeologiyaning tilshunoslikdagi o'rni, uning asosiy tushunchalari – parafraza, frazeologiya va frazemalarning o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, frazemalarning ifoda va mazmun rejasi, ularning turg'unligi, ko'chma ma'nosi, semantik tuzilishi va uslubiy bo'yog'i misollar bilan yoritilgan. Maqolada frazemalarning erkin birikmalardan farqi, ularning nutqda tutgan o'rni, shuningdek, ayrim frazemalarning termin sifatida qo'llanishiga ham to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: frazeologiya, frazema, frazeologizm, parafraza, turg'un birikma, ko'chma ma'no, ifoda rejasi, mazmun rejasi, uslubiy bo'yoqdorlik.

Frazeologiya so'zi fraza – “ibora”, logos – “bilim” so'zlaridan olingan. Frazeologiya tilshunoslikning eng muhim bo'limlaridan biri bo'lib, u tilning lug'at tarkibidagi frazemalar haqida ma'lumot beradi. Ya'ni frazeologiya iboralarni o'rganadigan soha hisoblanadi. Iboralar tarkibiga turg'un birikmalar, parafrazalar va frazeologizmlar kiradi. Shuning uchun “ibora” tushunchasi kengroq bo'lib, uni frazeologizm bilan tenglashtirib bo'lmaydi, chunki frazeologizm iboraning bir qismi hisoblanadi.

Parafrazalar- ma'lum so'z yoki uning qismlari ko'chma ma'noda qo'llanib, ularning umumiy ma'nosi orqali bitta tushunchani ifodalaydigan lug'aviy birlikdir. Ular doimo birikma shaklida keladi va qo'shimcha (konnotativ) ma'noga ega bo'ladi. Masalan: *qalam ahli, mo'yqalam sohibi, dala malikasi, qora oltin, hayot ko'zgusi, ilm zahmatkashlari* va boshqalar.

Frazeologizmlar – nutqimizda tayyor holda qo'llaniladigan, kamida ikkita so'zning birikishidan hosil bo'lgan, lekin yagona bir ko'chma ma'noni anglatuvchi barqaror birliklardir. Ular gapda bitta bo'lak vazifasini bajaradi va ularni tashkil etgan so'zlarni bir-biridan ajratib bo'lmaydi. Frazeologizmlar qaysi so'z turkumiga mansubligiga ko'ra uch guruhga bo'linadi: 1) fe'l frazeologizmlari (avra-astarini ag'darmoq, boshi aylanmoq, hafsalasi pir bo'lmoq); 2) ot frazeologizmlari (dil oynasi, aql chirog'i); 3) sifat frazeologizmlari (oq ko'ngil, beti qattiq, qo'li egri).

Frazema ko'chma ma'noli barqaror konstruksiya hisoblanadi. Masalan, “zo'raymoq” so'zi o'rniga “avj olmoq”, “qiynalmoq” o'rniga esa “azob chekmoq” iboralari ishlatiladi. Shuning uchun frazeologizm ham leksema kabi lug'aviy birlik hisoblanadi, lekin u ifoda va mazmun jihatidan ayrim xususiyatlari bilan leksemadan farq qiladi.

Frazemaning ifoda rejasi deganda iboraning talaffuzi, leksik tarkibi hamda uning so'z birikmasi yoki gapga teng keladigan tuzilishi tushuniladi. Masalan, ayrim iboralar so'z birikmasiga teng bo'lsa, boshqalari butun gap ma'nosini ifodalaydi. Ko'nglini olmoq (birikmaga teng), ko'zlari qinidan chiqib ketdi, boshi qotdi (gapga teng). Ba'zi

frazemalar esa qo'shma gap shakliga o'xshash tuzilishga ega bo'lishi ham mumkin. Misol uchun, "qor yog'ib, izlar bosildi".

Frazemalar tarkibidagi so'zlar o'zaro erkin birikmalardagi kabi bog'lansa-da, ular muhim jihatlar bilan farqlanadi. Erkin birikmalarda so'zlar nutq jarayonida yuzaga keladi, frazemalarda esa bog'lanish avvaldan shakllanib, tilda tayyor holda saqlanadi. Shuningdek, erkin birikmalarda so'zlarni o'zgartirish mumkin. Masalan, "keng ko'cha" birikmasi o'rnida "tor ko'cha" birikmasini, "men o'qiyman" gapi o'rnida "men ishlayman" gapini qo'llash mumkin, lekin "yulduzni benarvon urmoq" birikmasi o'rnida "yulduzni narvonsiz urmoq", "yulduzni shotisiz urmoq", "yulduzni beshoti urmoq" birikmalari qo'llanmaydi.

Har qanday turg'un birikma ham frazema hisoblanmaydi. Masalan, ayrim rasmiy nomlar turg'un bo'lsa-da, ular ko'chma ma'no bermagani uchun frazeologik birlik sanalmaydi. Frazemalar esa, albatta, yaxlit holda ko'chma ma'no ifodalashi kerak.

Frazemaning ifoda tarkibida asosiy so'zlardan tashqari yordamchi so'zlar va turli qo'shimchalar ham qatnashishi mumkin. Masalan, ochiq yuz bilan (bu frazemaning ifoda planida "bilan" ko'makchisi qatnashgan), dam olmoq (bu frazemaning ifoda planida "-moq" morfemasi ishtirok etgan). Ba'zi qo'shimchalar iboraning doimiy qismi hisoblanadi, chunki ular uning ichki tuzilishiga tegishli. Ammo ayrim grammatik qo'shimchalar (zamonga, shaxsga oid) nutq jarayoniga qarab qo'shiladi va frazemaning asosiy ifoda qismiga kirmaydi.

Frazemaning mazmun rejasi uning nimani anglatishi, qanday ma'noni ifodalashi bilan bog'liq. Ya'ni frazema orqali beriladigan tushuncha uning mazmunini tashkil etadi. Masalan, og'zi-qulog'ida frazemasining mazmun planida "xursand" ma'nosi ifodalangan.

Frazemaning mazmuni, asosan, ko'chma ma'noga tayanadi. Agar u faqat to'g'ri ma'noda qo'llansa, u oddiy turg'un birikmadan farq qilmay qoladi. Shu sababli frazemalardagi ma'no frazeologik ma'no deb yuritiladi. Bu ma'no oddiy leksik ma'nodan murakkabroq bo'lib, ibora tarkibidagi so'zlarning umumiy bog'lanishidan kelib chiqadi.

Frazemaning semantik tuzilishida nafaqat asosiy ma'no, balki uslubiy bo'yoq ham mavjud bo'ladi. Masalan, to'nini teskari kiymoq frazemasining semantik tarkibida "o'chakishmoq" (frazeologik ma'no) bilan birga "qaysarlik" semasi (uslubiy bo'yoq) ham bor. To'rt tomoni qibla frazemasida "qayoqqa xohlasa ketaversin" ma'nosi bilan birga salbiy baho (uslubiy bo'yoq) ham ifodalangan. Chehrasi ochiq frazemasining semantik tarkibida esa "xushtabiat" ma'nosi ijobiy baho (uslubiy bo'yoq) semasi bilan qoplangan.

Odatda, bunday baholovchi ma'nolar frazemaning ajralmas qismi hisoblanadi va nutqda ta'sirchanlikni oshiradi. Ayniqsa, badiiy matnlarda frazemalar kuchli ifoda vositasi sifatida muhim ro'l o'ynaydi.

Shuningdek, ayrim frazemalar rasmiy yoki huquqiy tilga moslashib, termin sifatida ham ishlatilishi mumkin. Bunday holatda ularning obrazlilik kamayib, uslubiy rangsizlanish yuz beradi va ular oddiy terminlarga yaqinlashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Yo'ldoshev I., Muhamedova S., Sharipova O., Majidova R. Tilshunoslik asoslari. – Toshkent, 2013. 198-b.
2. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent, Talqin, 2005. 216-b.

3. Mamatov A. O'zbek tili frazeologizmlarining shakllanishi masalalari, Filol. fan. dok. diseertatsiyasi. Toshkent, 2000.
4. Yo'ldoshev B. Hozirgi o'zbek adabiy tilida frazeologik birliklarning funksional-uslubiy xususiyatlari. Filol.fan.dok.dissertatsiyasi. 1993.